

MISH-MISHLARGA QARSHI NAZORAT QILISH: CHRISTA HYSON (MPH, PIO) COVID-19 KASALLIGI HAQIDA

6 mart 2020 yil

DUNYODA KORONAVIRUS YOKI COVID-19 KABI YANGI VIRUS PAYDO BO'LGANIDA KO'PGINA SAVOLLAR TUG'ILADI.

COVID-19 kasalligi haqida tashvishlanish tabiiy holat, biroq **hozir qo'rquvga tushadigan emas, balki tayyorganlik ko'radigan vaqtdir. Hududimiz salomatlik va sog'liqni saqlashga ta'sir qiluvchi masalalarda hamkorlikda ishlash bo'yicha uzoq tarixga ega.**



Bu The Health Collaborative kompaniyasi tomonidan boshqariluvchi juda faol va uzluksiz favqulodda holatlarga tayyorlik dasturini o'z ichiga oladi.

The Health Collaborative (THC) kompaniyasi hozirgi COVID-19 kasalligi tarqalgan vaqtda Greater Cincinnati Halokatlarga tayyorlik koalitsiyamiz (Disaster Preparedness Coalition, DPC) orqali hududimizni qo'llab-quvvatlashda faol rol o'ynamoqda. DPC ning asosiy vazifasi COVID-19 kasalligiga qarshi javob berishda barcha Kaolitsiya a'zolari orasida hududiy muvofiqlashtirish va hamkorlikni ishlashni yo'lga qo'yishdan iboratdir. A'zolar Tristat hududidagi kasalxonalar, shoshilinch tibbiy yordam xizmatlari, favqulodda yordam xizmatlari, davlat sog'liqni saqlash muassalari va boshqa hamjamiyat hamkorlarini o'z ichiga oladi.

Mavxumlik sharoitlarida ijtimoiy tarmoqlar turli mish-mishlar va yolg'on ma'lumotlar manbaiga aylanishlari mumkin. THC COVID-19 kasalligini tarqalishi bo'yicha eng so'nggi yangiliklar va eng yaxshi amaliyotlar bo'yicha ma'lumotlar olish uchun Ogayo Sog'liqni saqlash boshqarmasi (Ohio Department of Health, ODH) va Kasalliklarni nazorat qilish markazlari (Centers for Disease Control and Prevention, CDC) bilan yaqin hamkorlikda ish olib boradi. Biz COVID-19 kasalligi to'g'risidagi noto'g'ri, zararli ma'lumotlarning mahalliy va mamlakat miqiyosida tarqalib borayotganligi, bu esa CDC va davlat hamda mahalliy sog'liqni saqlash muassasalari kabi ishonchli ma'lumot manbalariga tayanishning hududimiz uchun yanada muhim qilayotganligidan xabardormiz.

“HUDUDIMIZ UCHUN CDC VA DAVLAT HAMDA MAHALLIY SOG’LIQNI SAQLASH MUASSASALARI KABI ISHONCHLI MA’LUMOT MANBALARIGA TAYANISH JUDA MUHIMDIR.”

[Ogayo Sog’liqni saqlash boshqarmasi har kuni soat 14-00 da o’zining COVID-19 kasalligiga bag’ishlangan veb-saytini yangilab turadi](#) va virus borligi bo’yicha nazorat ostida bo’lgan yoki tekshirilayotgan shaxslar bo’yicha so’nggi ma’lumotlar va natijalarni joylaydi.

Aynan hozir esa Greater Cincinnati rezidentlari uchun eng muhim narsa bu o’zlari har qanday respirator virusiga qarshi foydalanadigan oldini olish choralari ko’rishni davom ettirishdir:

- **Qo’llaringizni tez-tez sovun va suv bilan kamida 20 soniya davomida yuving.**
- **Yo’talganingizda va aksirganingizda yuzingizni tirsagingiz yoki bilagingiz bilan yoping.**
- **Kasal bo’lganingizda uyda turish orqali mikroblarning tarqalishining oldini oling.**

COVID-19 kasalligi haqida ko’proq ma’lumotlar olish uchun <https://healthcollab.org/covid-19/> saytiga kiring. OAV talablari uchun [elektron pochta orqali munga murojaat qiling](#). The Health Collaborative kompaniyasi odamlar salomatligiga bo’lgan tahdidlar yuz bergan vaqtdagi o’zining vazifasiga jiddiy yondashadi va jamoatchilikni xabardor qilish xodimi sifatida men a’zolar, hamkorlar va aksiyadorlarga faqat eng ishonchli va aniq ma’lumotlarni yetkazib berishga intilaman.

Hurmat bilan,



Christa Hyson, MPH

Senior Manager, External Relations

Public Information Officer, Greater Cincinnati Disaster Preparedness Coalition